



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 4-yanvar, chorshanba,  
1 (23.722)-son

Hech bir inson  
jamiyatimiz va  
davlatimizning mehri  
va e'tiboridan chetda  
qolmaydi. Buning  
uchun bor kuch va  
imkoniyatlarimizni  
safarbar etamiz.

SH. MIRZIYOYEV.

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

# 2023-YIL – INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

Samarqand viloyati hokimining QARORI

## Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq saksoninchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining saksoninchi sessiyasi 2023-yil 12-yanvar kuni soat 9:00 da chaqirilsin.
2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
  - viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Sh.Sultonovning "Viloyatda ta'lim sifatini oshirish, maktablarga zamonaviy darsliklarni joriy etish bo'yicha takliflar hamda hududiy dasturning ijrosi to'g'risida"gi hisoboti haqida;
  - xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 1 yarim yillikka mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash to'g'risida;
  - boshqa masalalar.

Viloyat hokimi **E.TURDIMOV**  
2022-yil 30-dekabr

## KUN FIDOYILARI

Yangi yil bayrami kunlari viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi shaxsiy tarkib qutqaruvchi va o't o'chiruvchilaridan Akbar Ochilov va Mirsaid Rajabov Samarqand shahri Bek mahallasidagi xonadonlarning birida sodir bo'lgan yong'inni o'chirishda jonbozlik ko'rsatdi. A.Ochilov 13 yildan buyon 500 dan ortiq, M.Rajabov 300 dan ortiq yong'inlarni bartaraf etishda ishtirok etgan. Suratda ularning Yangi yil tadbirlarini betarafot o'tkazish maqsadida navbatdagi o'quv-mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rayotgan payti tasvirlangan.

**B.MUSTANOV**  
olgan surat.



## RAHBARLARNI TANIYSIZMI?

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri  
**Abdulla Negmatovich Aripov;**

Bosh vazir o'rinbosarlari:  
- Achilbay Jumaniyazovich Ramatov;  
- Jamshid Anvarovich Qo'chqorov;  
- Jamshid Abduhakimovich Xodjayev;  
- Zulayho Bahriddinovna Mahkamova.

**VAZIRLAR:**

- Iqtisodiyot va moliya vaziri **Sherzod Kudbiyev;**
- Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri **Laziz Qudratov;**
- Tog'-koh sanoati va geologiya vaziri **Bobir Islomov;**
- Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri **Botir Zokirov;**
- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri **Behzod Musayev;**
- Qishloq xo'jaligi vaziri **Aziz Vaitov;**
- Suv xo'jaligi vaziri **Shavkat Hamroyev;**
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri **Ibrohim Abdurahmonov;**
- Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri **Hilola Umarova;**
- Adliya vaziri **Akbar Toshqulov;**
- Ichki ishlar vaziri **Po'lat Bobojonov;**
- Mudofaa vaziri **Bahodir Qurbonov;**
- Tabiiy resurslari vaziri **Aziz Abduhakimov;**
- Transport vaziri **Iltom Mahkamov;**
- Yoshlar siyosati va sport vaziri **Adham Ikromov;**
- Raqamli texnologiyalar vaziri **Sherzod Shermatov;**
- Madaniyat va turizm vaziri **Ozodbek Nazarbekov;**
- Energetika vaziri **Jo'rabek Mirzamahmudov;**
- Sog'liqni saqlash vaziri **Amrillo Inoyatov;**
- Tashqi ishlar vaziri v.b. **Baxtiyor Saidov;**
- Favqulodda vaziyatlar vaziri **Abdulla Qo'ldoshev.**

**Qo'mita va agentliklar rahbarlari**

- Raqobatchilikni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi **Shaxrux Sharaxmetov;**
- Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi **Sodiq Toshboyev;**
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori **Baxodir Begalov;**
- Milliy antidoping agentligi direktori **Abdushukur Sadikov;**
- Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahil markazi direktori **Olim Narzullayev;**
- Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi raisi **Akmakho'ja Mavlonov;**
- Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisi **Bahromjon Norqobilov;**
- Tabiiy resurslari vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligi direktori **Nizomiddin Bakirov;**
- Tog'-koh sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-koh, geologiya va sanoat xavfsizligi nazorat inspeksiyasi boshlig'i **Baxtiyor Gulyamov.**

↓ **Prezident farmoniga ko'ra**

## HUDUDLAR BESH TOIFAGA BO'LINDI

Davlatimiz rahbarining "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tashqi tadbirkorlikni tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, 2023-yil 1-yanvardan respublikaning 208 ta tuman va shaharlari besh toifaga ajratildi.

- 1-toifa (Tadbirkorlik uchun har tomonlama rivojlangan hudud) - Samarqand shahri;
  - 2-toifa (Ihtirozlashtirilgan yaxshi bo'lgan hudud) - Jomboy, Samarqand va Toyloq tumanlari;
  - 3-toifa (Sharoiti nisbatan qoniqarli bo'lgan hudud) - Kattaqo'rg'on shahri, Bulung'ur, Ishtixon, Narpay, Qodaryo, Past Darg'om va Urgut tumanlari;
  - 4-toifa (Jozibadorligi yetarli bo'lgan hudud) - Kattaqo'rg'on, Nurobod, Paxtachi va Payariq tumanlari;
  - 5-toifa (Sharoiti og'ir bo'lgan hudud) - Qo'shrabot tumani.
- Tuman va shahar toifasidan kelib chiqib, tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar beriladi.
- 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha soliq solishning quyidagi tabaqalashtirilgan tartibi joriy etiladi:
- 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlar:
    - foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni 1 foiz;
    - yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida soliq stavkalari bo'yicha to'laydi.
  - Yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'prog' miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno.
  - Shuningdek, 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan YaTTLer jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summalarini to'lashdan ozod qilinadi.
  - 4 va 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan kichik tadbirkorlik sub'yektlariga:
    - banklarning kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq Markaziy bank asosiy stavkasining 40 foizidan ko'p bo'lmagan qismni qoplash uchun kompensatsiya;
    - banklar kreditlarining 75 foizigacha, biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik taddim etiladi.
- Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida quyidagi kamaytiruvchi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:
- 5-toifadagi tumanlarda - 50 foiz;
  - 4-toifadagi tumanlarda - 50 foiz;
  - 3-toifadagi tumanlarda (shahar aholi punktlaridan tashqari) - 30 foiz qo'llaniladi.



Bolalar hamda homilador va tug'ish yoshidagi ayollarni yanada sifatli tibbiy xizmat bilan to'liq qamrab olish uchun "Tibbiyot brigadeleri" tarkibiga qo'shimcha 4900 ta o'rta tibbiyot xodimlari (pediatr va hamshirasi va doya) shtatlar ajratiladi.

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni majburiy davolashga yuborish bo'yicha barcha tibbiy tashkilotlar narkologiya dispanserlarining o'zida o'tkaziladi. Zarur hollarda boshqa muassasalarda amalga oshiriladi.

Narkologiya dispanserlaridagi mavjud koyalat haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy filiallarining ambulator va stasioner bo'limlarida tibbiy psixolog yoki psixoterapevt lavozimlari joriy etiladi.

Fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, advokatura sohasini sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari faoliyati bilan integratsiya qilishni nazarda tutuvchi "Yuridik yordam" axborot tizimi ishga tushiriladi.

Kadastir va ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazish integratsion axborot tizimi (UZKAD) ko'chmas mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestri hamda ko'chmas mulk ob'yektlari haqidagi ma'lumotlar yuritiladigan, ma'lumotlarining haqiqiyligi va ishonchligi davlat tomonidan kafolatlanadigan yagona axborot tizimi etib belgilanadi.

O'zining shaxsiy to'morda yer uchastkasida quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan fuqarolar tomonidan yiliga BHMning kamida 1 baravari (300 ming so'm) miqdorida ijtimoiy soliq to'langan taqdirda, ular rasmiy band bo'lgan aholi toifasiga kiritiladi va ushbu davr ularning mehnat stajiga qo'shiladi:

- chorvachilik (qoramol, qo'y, echki, ot va boshqalar);
- issiqxonalar;
- parrandachilik (bedana, kurka, g'oz, o'rdak);
- quyunchilik;
- esalarichilik;
- baliqchilik;
- bog'dorchilik;
- limonchilik;
- gulchilik.

Yangi quriladigan ko'p kvartirali uylarni chiqindi to'plash joylarini belgilamadan loyihalashtirish hamda foydalanishga qabul qilish taqiqlanadi.

Shuningdek, yangi quriladigan ko'p kvartirali uylarning chiqindi to'plash joylari ulardagi kvartiralar soniga mutanosib ravishda hamda atrofdagi mavjud chiqindi to'plash shoxobchalari quvvati hisobga olingan holda loyihalashtiriladi.

Ipak qurti urug'i, tut ko'chatlari va pilla yetishtirish, pillani qayta ishlash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda qorako'lchilik bilan shug'ullanayotgan sub'yektlar, qorako'lchilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari va qorako'lchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun ko'zda tutilgan soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar 2026-yil 1-yanvargacha foyda, aylanmadan olinadigan va mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilinadi.

Ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'p xo'jalik jamiyatlarining kuzatuv kengashi majlisi va ishtirokchilari umumiy yig'ilishi bayonlari ular rasmiylashtirilgandan so'ng 10 kunda "Davlat mulki" axborot tizimida joylashtiriladi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining QARORI

Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

Budjet kodeksining 99-moddasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, viloyat hokimining birinchi o'rinbosarining 2022-yil 22-dekabrda...

1. O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni iro uchun qabul qilinadi. 2. O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, viloyat mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 4 958,8 milliard so'm, xarajatlari 7 155,0 milliard so'm...

3. Quyidagilar: 2023-yil uchun Samarqand viloyatini rivojlantirish asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi 1-ilovaga muvofiq; 2023-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq; 2023-yil uchun viloyat mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq; 2023-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumiy davlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq; Buningda, ajratmalar normativlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda viloyat bo'yicha g'aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yiladi.

6. 2023-yil uchun viloyat mahalliy budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 13 275,0 million so'mni hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlari boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinadi.

8. Qonunga muvofiq, 2023-yilda quyidagi soliq turlari: a) shahar va tumanlar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi: jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i; jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i; jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asoslan to'laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; suv resurslaridan foydalanish uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev), viloyat hokimining birinchi o'rinbosari kotibiyati (K.Xushbakov), viloyat moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Inqamov), shahar va tuman hokimliklari: 2023-yilning mart (I chorak uchun), iyun (II chorak uchun), sentabr (III chorak uchun), dekabr (yillik oylaning dastlabki o'n kunligida viloyat, shahar va tumanlarda dastlabki ikki oylikda davlat budjeti va mahalliy budjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlari, mahalliy budjet daromadlari bajarilishi holati, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi yuzasidan shahar va tuman hokimlarining birinchi o'rinbosarlari, davlat soliq inspeksiyasi va moliya bo'limi boshliqlari ishtirokida muhokamalar o'tkazilishini ta'minlash.

13. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi E.TURDIMOV 2022-yil 29-dekabr Vi-79-250-7-0-K/22

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda Vi-79-250-7-0-K/22-son qaroriga 1-ILOVA

2023-yil uchun Samarqand viloyatini rivojlantirishning asosiy iqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari

Table with 3 columns: No, Ko'rsatkichlar, 2023-yil uchun prognoz. Rows include Yalpi hududiy mahsulot, Yalpi hududiy mahsulotning o'shish sur'ati, Iste'mol narxlar indeks, Sanoat mahsulotlarining o'shish sur'ati, Oshiqchi o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan o'shish sur'ati, Chakana tovar aylantirishning o'shish sur'ati.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda Vi-79-250-7-0-K/22-son qaroriga 2-ILOVA

2023-yil uchun Samarqand viloyatining budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari

Table with 3 columns: T/R, Daromad turlari, Jami. Rows include Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, Aktsiz solig'i, Yuridik shaxslar yer solig'i, Davlat boji, Davlat tashtilotlari foyda solig'i, Davlat mulki ob'ektlarini sotib olingan daromadlar, Jami, Yig'inar.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda Vi-79-250-7-0-K/22-son qaroriga 3-ILOVA

2023-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

Large table with 3 columns: No, Ko'rsatkichlar, miqdori. Rows list various budget items like 'shu jumladan', 'jori narajalar', '26. Viloyat saylov komissiyasi', '27. Davlat arshi boshqarmasi', '28. Viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazi', '29. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Ishlari agentligi viloyat boshqarmasi', '30. Viloyat oila va solin-qizlar boshqarmasi', '31. Boshqa tashtilotlar', '32. Viloyat mahalla va mahalliy aholi qo'llab-quvvatlash boshqarmasi', '33. Piliachilik va qorako'lchilik rivojlantirish qo'mitasining viloyat hududiy bo'limi', '34. Prezident ta'lim muassasalari agentligi viloyat hududiy bo'limi', '35. Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi viloyat hududiy bo'limi', '36. O'limlar karantini va ilmiy agentligi viloyat hududiy bo'limi', '37. Klimatografiya agentligi viloyat hududiy bo'limi'.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda Vi-79-250-7-0-K/22-son qaroriga 4-ILOVA

2023-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga umumiy davlat soliqlaridan ajratmalar me'yori

Table with 10 columns: T/R, Shahar va tumanlar nomi, Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i, Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, Yalpi mahalliy mahsulot, Yig'inar (bojxona yig'imlaridan tashqari), Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, Aylanmadan olinadigan soliq, Davlat mulki bo'yicha jara to'lovlari.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda Vi-79-250-7-0-K/22-son qaroriga 5-ILOVA

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2023-yilgi daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari

Table with 4 columns: T/R, Hudud nomi, Daromad, Xarajat. Rows list districts like Samarqand shahri, Kattaqo'rg'on shahri, Oqdaryo tumani, Bukuro'g'on tumani, Jomboy tumani, Ishkon tumani, Kattaqo'rg'on tumani, Qo'shlobot tumani, Narpatay tumani, Fayoz tumani, Past Darq'o'm tumani, Pastchi tumani, Samarqand tumani, Narobod tumani, Urgut tumani, Toyloq tumani.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda Vi-79-250-7-0-K/22-son qaroriga 6-ILOVA

2023-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transferlar miqdorlari

Table with 4 columns: T/R, Shahar va tumanlar, Tartibga soluvchi transferlar miqdori, Jami. Rows list districts like Samarqand shahri, Kattaqo'rg'on shahri, Oqdaryo tumani, Bukuro'g'on tumani, Jomboy tumani, Ishkon tumani, Kattaqo'rg'on tumani, Qo'shlobot tumani, Narpatay tumani, Fayoz tumani, Past Darq'o'm tumani, Pastchi tumani, Samarqand tumani, Narobod tumani, Urgut tumani, Toyloq tumani.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda Vi-79-250-7-0-K/22-son qaroriga 7-ILOVA

2023-yil uchun viloyat budjeti; shahar va tumanlar mahalliy budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turadigan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori

Table with 3 columns: T/R, Hudud nomi, Miqdor. Rows list districts like Viloyat budjeti, Samarqand shahri, Kattaqo'rg'on shahri, Oqdaryo tumani, Bukuro'g'on tumani, Jomboy tumani, Ishkon tumani, Kattaqo'rg'on tumani, Qo'shlobot tumani, Narpatay tumani, Fayoz tumani, Past Darq'o'm tumani, Pastchi tumani, Samarqand tumani, Narobod tumani, Urgut tumani, Toyloq tumani.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining QARORI

# Samarqand viloyatida 2023-yilda yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillash-tirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 9-dekabrda (06/04-34-4103-son) xati, viloyat davlat soliq boshqarmasining 2022-yil 12-dekabrda (19/10-117614-son) va moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 13-dekabrda (01/02-38-918-son) xulosalariga asoslanib, xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq yetmish to'g'rinchi sessiyasi QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:  
Samarqand viloyatida 2023-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq o'lchamda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovala;  
Samarqand viloyatida 2023-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo'yicha mutlaq o'lchamda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga (dehqon xo'jaligini yuritish uchun, shuningdek, jismoniy shaxslarga berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalaridan tashqari) qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovala muvofiq tasdiqlansin.  
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillash-tirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli farmoni bilan, xalq deputatlari shahar va tumanlar Kengashlariga mazkur qarorning 1 va 2-ilovalariga muvofiq tasdiqlangan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlardan kelib chiqqan holda, bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni

daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida qayta belgilash huquqi berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.  
3. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat hokimligi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" (A.Anvarov) ushbu qarorni "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarda rasman e'lon qilinishi va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlansin.  
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev) va viloyat hokimining o'rinbosari (F.Abilov) zimmasiga yuklansin.  
5. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundah e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **E.TURDIMOV**  
2022-yil 30-dekabr  
VI-79-253-7-0-K/22

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 30-dekabrda VI-79-253-7-0-K/22-son qaroriga 1-ILOVA

Samarqand viloyatida 2023-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq o'lchamda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Hudud nomi	Kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar
1	Samarqand shahri	1,23
2	Kattaqo'rg'on shahri	1,11
3	Oqdaryo tumani	0,73
4	Bulung'ur tumani	0,73
5	Jomboy tumani	0,73
6	Ishtixon tumani	0,61
7	Kattaqo'rg'on tumani	0,61
8	Qo'shrabot tumani	0,60
9	Narpay tumani	0,73
10	Payariq tumani	0,73
11	Past Darg'om tumani	0,73
12	Paxtachi tumani	0,60
13	Samarqand tumani	0,73
14	Nurobod tumani	0,60
15	Toyloq tumani	0,73
16	Urgut tumani	0,73

\*Viloyat bo'yicha yuridik shaxslar bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi 39,0 million so'm etib belgilangan.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 30-dekabrda VI-79-253-7-0-K/22-son qaroriga 2-ILOVA

Samarqand viloyatida 2023-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo'yicha mutlaq o'lchamda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(bundan dehqon xo'jaligini yuritish uchun, shuningdek, jismoniy shaxslarga berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari mustasno)

T/R	Hudud nomi	Kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar
1	Samarqand shahri	1,22
2	Kattaqo'rg'on shahri	1,07
3	Oqdaryo tumani	0,60
4	Bulung'ur tumani	0,60
5	Jomboy tumani	0,72
6	Ishtixon tumani	0,60
7	Kattaqo'rg'on tumani	0,60
8	Qo'shrabot tumani	0,60
9	Narpay tumani	0,60
10	Payariq tumani	0,60
11	Past Darg'om tumani	0,60
12	Paxtachi tumani	0,60
13	Samarqand tumani	0,72
14	Nurobod tumani	0,60
15	Toyloq tumani	0,72
16	Urgut tumani	0,60

\*Viloyat bo'yicha jismoniy shaxslar bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarning 1 kv.m. uchun bazaviy soliq stavkasi 352 so'm etib belgilangan.

## YANGI TARTIBLAR YO'LGA QO'YILYAPTI

2023-yil 1-yanvardan O'zbekiston qonunchiligida ayrim o'zgarishlar ro'y berdi. Quyida ularning ayrimlarini eslatib o'tamiz:

### Tadbirkorlik sohasida talablar soddalashtirilmogda

Quyidagi talablar bekor qilinmogda:

- tadbirkorlik sub'yektining ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinganda, kreditorlarni yozma ravishda xabardor qilish va OAVda bu haqda e'lon berish;
- yangi import avtomobillarini sotish faqat yuridik shaxslar - ishlab chiqaruvchi korxonalarining rasmiy dilerlari tomonidan amalga oshirilishi;
- elektr energiyasini elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan hajmlardan (oylik shartnomaviy miqdordan) ortiqcha iste'mol qilgan yuridik shaxslarga elektr energiyasi yetkazib berishni to'xtatib qo'yish;
- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlarni Yagona milliy mehnat tizimida hisobga olish orqali soliq xizmati organlarida alohida hisobga qo'yish.

### Qurilish sohasida talablar soddalashtiriladi

Qurilish-montaj, rekonstruksiya va mukammal ta'mirlash ishlarini o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirayotgan tadbirkorlik sub'yektlari uchun smeta-resurs normalari tavsiyaviy xususiyatga ega bo'ladi.

Qurilish reglamentlari hamda smeta-resurs normalarini Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan o'tkazish talab etilmaydi. Shaharsozlik normalari va qoidalari har 3-4 yilda qayta ko'rib chiqiladi va zaruratga ko'ra yangilab boriladi.

### Tadbirkorlarni tekshirish tartibi o'zgaradi

Nazorat qiluvchi organlarga "Yagona davlat nazorati" axborot tizimidagi davlat nazorati funksiyalari ro'yxatiga kiritilmagan funksiyalar bo'yicha tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish taqiqlanadi.

### Tekstil mahsulotlarini olib chiqish uchun yig'im miqdori o'zgaradi

O'zbekiston bojxona chegarasi orqali paxta ip-kalavasi va trikotaj matoni (bo'yalgan trikotaj matodan tashqari) olib chiqishda har bir kilogramm uchun \$ 0,1 miqdorida yig'im undiriladi (2022-yilda - \$ 0,05).

### Import shartnomalar bo'yicha xizmatlarni soliqqa tortish tartibi o'zgarimogda

Asbob-uskunalar (qurilmalar, mexanizmlar, butlovchi va ehtiyot qismlar) sotib olish (sotish) bo'yicha shartnomada (kontrakt-da) ularni montaj va (yoki) ishga tushirish-sozlash xizmatlari, xodimlarni o'qitish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan hollarda norezidentning soliq solinadigan daromadi ushbu xizmatlarning bazor qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi.

### Statistika hisobotlarining yangi shakllari kuchga kirmogda, ayrimlari o'z kuchini yo'qotmogda

2023-yil uchun 100 dan ziyod statistika hisobot shakllari kuchga kirmogda.

Statistika hisobotining 9 ta shakli va buxgalteriya hisobi sub'yektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilinmogda.

### Pensiya hisoblash tartibi o'zgaradi

Yoshga doir, nogironlik hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining eng ko'p miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan o'n ikki barobarigacha oshirildi.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslarning pensiya ta'minotiga oid quyidagi normalar kuchga kirdi:

- I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblanadi;
- I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lsa, fuqaroning arizasi asosida ish staji va ish haqi inobatga olingan holda pensiya har ikki yilda bir marotaba qayta hisoblab chiqiladi.

### Nogironligi bo'lgan shaxslarni hisobga olishning elektron tizimi joriy etildi

2022-yil 1-avgustdan Toshkent shahrida nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarida hisobga olish va ko'rikdan o'tkazishning yangi "Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza" elektron axborot tizimi joriy etilgan.

Bunda fuqarolarga nogironlikni belgilash uchun asos hisoblanadigan (tibbiy yo'llanma, kasallik tarixi, va ambulator kartadan ko'chirmalar va boshqa) ma'lumotlar axborot tizimiga elektron tarzda kiritilishi ta'minlanadi.

1-yanvardan axborot tizimi respublikamizning barcha hududlarida to'liq joriy etiladi.

### Ayrim davlat organlari majburiy tartibda nogironlar jamiyatlaridan tovarlar xarid qilishadi

Sog'liqni saqlash vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi, shuningdek, ushbu idoralar tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning o'zlariga kerak tovarlarning kamida 10 foiz qismini nogironlar jamiyatlari tomonidan ishlab chiqilgan tovarlar tashkil etadi.

### "E-patrol" tizimi joriy etiladi

Bosqichma-bosqich "E-patrol" tizimi joriy etilib, fuqaroning shaxsini aniqlash uchun ichki ishlar bo'limiga olib borish amaliyotidan voz kechiladi.

Barcha ma'lumotlar onlayn tekshiriladi, patrol xodimlarining faoliyati esa bodikamera orqali qayd etiladi.

### Advokatlik litsenziyasi onlayn rasmiylashtiriladi

Hukumat qarori bilan Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra, advokatlik faoliyatini litsenziyalash quyidagi ixtisosliklar bo'yicha amalga oshiriladi:

- fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish;
- ma'muriy va jinoyiy sud ishlarini yuritish.

Har bir advokat tegishli ixtisoslikni mustaqil tanlash va u bo'yicha malaka imtihoni topshirish huquqiga ega.

Talabgor litsenziya olish uchun arizani "Litsenziya" AT yoki YAIDXP (my.gov.uz) orqali elektron yuboradi. Arizalar har kuni, dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, 24 soat davomida yuborilishi mumkin.

### Ipoteka kreditlari uchun subsidiya olgan shaxslar JSHDSdan ozod etiladi

Dastlabki badalning va ipoteka krediti bo'yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun subsidiya berilgan fuqarolarning olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun yo'naltirilgan ish haqi va boshqa daromadlari JSHDSga tortilmaydi.

Ushbu imtiyoz qarz oluvchi va birga qarz oluvchilar daromadining bir soliq davrida mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 80 baravaridan oshmagan qis-miga tatbiq etiladi.

### Samarqandda imtiyozli transport kartalari beriladi

Yil avvalida Toshkent va Samarqandda imtiyozli transport kartalarini berish boshlanadi.

Imtiyozli kartalarni olish uchun hududiy transport boshqarmalariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilish lozim.

Ma'lumot uchun, quyidagi shaxslarga shahar yo'lovchi transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqi berilgan:

- 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda urushning I guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs;
- Afg'onistonda va boshqa mamlakatlarning hududida jangovar harakatlarda qatnashgan sobiq bay-nalmilchi jangchilar jumlasidan bo'lmish fuqarolar;
- haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt bo'yicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar;
- Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar;
- nogironligi bo'lgan ko'zi ojiz shaxslar va nogironligi bo'lgan ko'zi ojiz shaxsga safarlarida hamrohlik qiluvchi shaxs.

### "Shaffof yo'l" platformasi to'liq ishga tushiriladi

Hukumat qaroriga ko'ra, aholi yo'llardagi nosozliklar, svetofoar va yo'l belgilari o'rnatilmagan haqida foto va videomurojaatlarni "Shaffof yo'l" platformasi orqali yuborishi mumkin.

Platformaning alohida sahifasiga fuqarolarning yo'llar nosozligi, shuningdek, yo'llarda va yo'l bo'yida xavfsiz harakatlanish uchun yuzaga kelgan favqulodda texnik muammolar haqida foto va videomurojaatlar jamoatchilik fikri asosida joylashtiriladi. Bu svetofoarlar va yo'l belgilari o'rnatilmaganligi yoki ularning shikastlanganligi, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan hodisalar ortidan hosil bo'ladigan oqibatlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Test rejimidagi platforma 2023-yil 1-yanvardan to'liq ishga tushadi.



# BILASIZMI?

2023-yilgi soliq o'zgarishlarida kichik biznes egalari uchun soliqlar pasaytirilmoqda, qo'shilgan qiymat solig'i ham 15 foizdan 12 foizga tushirilmoqda. Aylanmasi 500 million so'mgacha bo'lgan tadbirkorlar oyiga 1,6 million so'm, aylanmasi 1 milliardgacha bo'lganlar oyiga 2,5 million so'm qat'iy belgilangan soliq to'lashga o'tadi, dividend solig'idan ozod bo'ladi, buxgalteriya hisobini yuritmaydi.

Joriy soliq davrining IV choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi 9 oylik yakunlariga ko'ra, soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi va yarim yillik yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi o'rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi. Agar hisoblab chiqarilgan har oylik bo'nak to'lovining summasi manfiy yoki nolga teng bo'lsa, ko'rsatilgan to'lovlar tegishli chorakda amalga oshirilmaydi. Har oylik bo'nak to'lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda soliq to'lovchi kelgusi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda bo'nak to'lovlar summasi to'g'risida soliq organlariga ma'lumotnoma taqdim etish huquqiga ega. Kutilayotgan foyda summasi asossiz kamaytirib ko'rsatilgan taqdirda, soliq organlari soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etiladigan soliq bo'yicha bo'nak to'lovlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomaga o'zgartirishlar kiritishga haqli. (Soliq kodeksining 340-moddasi).



Boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash, shuningdek, ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan hamda bajarilgan ishlardan olingan mablag'lar soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar sirasiga kiradi.

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'ZBEK IMO-ISHORA TILI VA BRAYL ALIFBOSI O'RGATILADI**  
2023-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda "Ishga mahallat" mahallat markazlarida o'zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini o'rgatish bo'yicha maxsus o'quv kurslari tashkil etiladi. Maxsus o'quv kurslarida ko'rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslar hamda ushbu toifadagi voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki ularning o'rtni bosuvchi shaxslar - bepul, qolgan shaxslar - pullik asosda o'qitiladi. Davlat telekanallarida haftalik efir vaqtining kamida besh foiz hajmidegi ko'rsatuvlar surdotalarima, yashirin subtitrlar yoki "yuguruvchi satrlar" bilan namoyish etiladi. 2024/2025 o'quv yilidan boshlab kar va zaif eshituvchi bolalar uchun itisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'qituvchi lavozimiga faqat imo-ishora tilini biladigan pedagoj kadrlar ishga qabul qilinadi. 2023/2024 o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini shakllantirishda surdopedagogika va tiflopedagogika yo'nalishlari bo'yicha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari 25 foizga oshiriladi.

## RESPUBLIKA VA HUDUDIY IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI FUNKSIYALARINING OCHIQ REESTRI SHAKLLANTIRILADI

"Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning hududiy bo'linmalari mas'uliyatini oshirish maqsadida respublika va mahalliy darajadagi bo'g'inlarning funksional chegaralari belgilandi. 2023-yil 1-yanvardan: - respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida xo'jalik boshqaruv organlarining rahbari vazifasini bajarishi taqiqlanadi; - uyushma va boshqa xo'jalik birlashmalariga davlat hokimiyati vakolatlarini berish va ularning rahbarlarini Vazirlar Mahkamasiga qarorlari bilan lavozimga tayinlash amaliyoti bekor qilinadi. Barcha respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining qariyb 5 ming funksiyalari xatlovdan o'tkazilib, 500 ga yaqin takrorlanadigan, o'z ahamiyatini yo'qotgan hamda amalga oshirish mexanizmlari bilan ta'minlanmagan funksiyalar aniqlanganligini inobatga olingan holda respublika va hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlari funksiyalarining ochiq reestri shakllantirilib, doimiy yuritish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Funksiyalar yegona reestri elektron tarzda yuritish imkonini beradigan "Davlat funksiyalari" avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi yuritiladi. Qarorga ko'ra, sinov tartibida, Adliya vazirligi tizimida idoraviy buyruq, qaror va fermoyishlarni "E-qaror" elektron tizimi orqali qabul qilish va e'l'on qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

## HOKIMLARNING KADASTR ORGANLARI ISHIGA ARALASHISHI TAQIQLANADI

"O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastir agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan: - Kadastir agentligining hududiy tuzilmalari faoliyatini tashkil etish Kadastir agentligi tomonidan amalga oshiriladi; - hududiy boshqarmalari va bo'linmalar faoliyatini moliyalashtirish respublika budjetidan amalga oshiriladi; - hududiy bo'linmalar, Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) filiallarining faoliyatiga hokimlar tomonidan aralashish yoki ta'sir o'tkazish qat'iy taqiqlanadi.

## FAXRIY DONORLARGA BERILADIGAN MUKOFOT PULI KO'PAYTIRILADI

"O'zbekiston Respublikasi faxriy donori" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga bir yo'la beriladigan pul mukofoti summasi BHMning 5 baravaridan 15 baravarigacha (1,5 milliondan 4,5 million so'mgacha) oshiriladi. Shuningdek, ko'krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga quyidagi huquqlar beriladi: - ular uchun qulay bo'lgan vaqtda yillik asosiy mehnat ta'tiliga chiqish; - shahar jamoat transportining barcha turlaridan (yo'nalishi va yo'nalishsiz taksi-lardan tashqari) bepul foydalanish; - davlat sanatoriy-kurortlarida devolanish uchun yo'llanmalarni havo bepul olish; - doimiy (yiliga kamida 3 marta qon topshiruvchi) donorlar va ularning yaqin qarindoshlari (ota-onalari, turmush o'rtog'i, farzandlari, aka-uka va opa-singillari, turmush o'rtog'ining ota-onalari) stazionar devolanish jarayonida, zarurat tug'ilganda, qon va uning tarkibiy qismlari bilan bepul ta'minlanadi; - donorlarni bepul ovqat bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlarning qiymati respublika bo'yicha bir xil - mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 3 foizi (27 ming 600 so'm) miqdorida belgilanadi; - immun donorlarga o'tkazilgan immunizatsiya va topshirilgan plazmasi uchun haq to'lash miqdori mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining oshirilishi darajasida mutanosib ravishda indeksatsiya qilib boriladi; - shoshilinch holatlarda donor qonining tarkibiy qismlarini tashish uchun tez libbiy yordam xizmatidan foydalanishga ruxsat beriladi.

## DAVLAT IJTIMOYIY BUYURTMASIGA OID MA'LUMOTLAR MAJBURIY TARTIBDA E'LON QILIB BORILADI

Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy tartibda quyidagilar elektron portalga joylashtirib boriladi: - ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarning loyihalari; - sotsial va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish uchun NNTlarga budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish uchun tanlov o'tkazilishi haqidagi e'lonlar; - kelgusi moliya yili uchun davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to'g'risida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondiga yoki hududiy jamoat fondlariga yuboriladigan buyurtmahomalar; - NNTlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar, tuzilgan hamkorlik bitimlari, memorandumlar hamda berilgan davlat ijtimoiy buyurtmalari haqidagi ma'lumotlar; - davlat ijtimoiy buyurtmalarini amalga oshirish jarayoni va natijalari, ajratilgan mablag'larning sarflanishi haqidagi ma'lumotlar.

# O'ZBEKISTONDA "TAX FREE" TIZIMI JORIY ETILADI

2022-yil 9-noyabrda "Chet davlat fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishda avval xarid qilingan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish tizimini joriy etish to'g'risida"gi Hukumat qarori qabul qilindi. Buning uchun chet davlat fuqarosi "Soliq" mobil ilovasida to'yxatdan o'tishi va xaridlari bo'yicha taqdim etilgan onlayn-NKT fiskal cheklarini skanerlashi kifoya. "Tax free" summasini hisoblash, uni chet davlat fuqarosining bank plastik kartasiga yoki bank hisobvarag'iga o'tkazib berish tizim operatori "Soliq-servis" DUK tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlarni "Soliq" mobil ilovasida onlayn vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyati yaratiladi. Chet davlat fuqarolari O'zbekiston hududini Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Urganch xalqaro aeroportlari orqali tark etganda, tizim operatoriga murojaat qilgan holda mahsulot xarid qilgan paytdan boshlab 3 oy ichida QQS summasini qaytarishni rasmiylashtirishlari mumkin bo'ladi. To'langan soliq "Tax free" summasi chet davlat fuqarosining respublika hududidan chiqib ketish holi taqdirlangan holda so'ng, xarid amalga oshirilgan oydan keyingi oyning 25-kunidan keyin qaytariladi. Bu tizim respublikaning barcha hududlaridagi chakana savdo ob'yektlarida qaror bilan tasdiqlangan to'yxatdan kirilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi va qiymati kamida 1 million so'm bo'lgan "Tax free" tizimi tatbiq etiladigan tovarlarni xarid qilish lozim.

# Eksportchilarga IMTIYOZ

2022-yil 1-noyabrdan boshlab eksport qiluvchi tashkilotlarga foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumda eksport hajmining ulushidan qat'i nazar, qo'llaniladi. "Yangi O'zbekiston-raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturiga kiritilgan korxonalariga eksport va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirganda nol darajali QQS stavkasi qo'llanilishi natijasida hosil bo'lgan soliqning oshib ketgan qiymatining murojaatiga asoslanib tezlashtirilgan tartibda 7 kun ichida to'g'ri qaytarib beriladi. Suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg'irlatib, diskret va boshqa) sug'orish texnologiyalari joriy etilgan yerlarga ushbu texnologiyalar joriy etilgan oydan besh yilgacha soliq solinmaydi. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organning xulosasi asosida beriladi. Agarda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oydan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yoki demontaj qilingan bo'lsa, soliq imtiyoz butun soliq davri uchun soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlarining tiklanishi bilan bekor qilinadi.

# Mushakbozlik "kimo'zar"ga aylandi

Bundan 10-15 yillar ilgari, shahar va tuman markazlarini gapirmaylik, hatto olis qishloqlarda ham Yangi yil bayrami yaqinlashsa, ko'pchilik yuragini hovuchlab yurardi. Sababi, oyog'ning tagida paqildoq portlashi mumkin edi. Bu holat ayniqsa, qon bosimi oshadigan keksalar, homilador ayollarni xavotirga solardi. Keyingi yillarda mamlakatimizda pirotexnika vositalarini olib kirish, tashish, saqlash, sotish va ulardan foydalanish sohasida samarali nazoratni o'rnatish bir muncha kuchaydi. O'sha ko'pchilikni qo'rqitadigan mayda paqildoqlar keskin kamayganday bo'ldi. Ammo odamlar yildan-yilga pirotexnika vositalarining zamonaviylaridan foydalanmoqda. - Yangi yil aslida bir dasturxon atrofida oilaviy hisohlanadigan bayram edi, - deydi Ishitxon tumani Suluvqo'rg'on qishlog'ida yashovchi Nadira Tolipova. - Aholi, ayniqsa, yoshlar bu bayramni ko'chada, turli xil shoular qilib nishonlashni, Yangi yil kechasida turli pirotexnika vositalaridan foydalanishni odat qilib olmoqda. Keyingi yillarda mahalla faollari va profilaktika inspektorlarining turli ko'ngilsizliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlari natijasida bunday holatlarga chek qo'yildi, desak xato bo'lmaydi. Ayniqsa, bu yilgi Yangi yil kechasi qishlog'imizda hech qanday shovqinning, pirotexnika vositalarining yoqimsiz tovushlarini eshitmadik. Bu yaxshi, albatta. Ayrim joylarda bo'lsa bordir. Ammo tuman va shahar markazlarida-chi? - Biz Samarqand shahrining chekkasida, Kimyog'arlar qo'rg'onida yashaymiz, - deydi Asiddin Mustafoyev. - Ommaviy axborot vositalari orqali pirotexnika vositalari masalasida ijobiy ishlar amalga oshirilayotgani haqidagi xabarlarni ko'p kuzatganimiz. Har Yangi yil oldidan bu galgi bayram kechasida paqildoqlar paqillanmasa ketrak deb o'yleymiz. Lekin bu yildan-yilga kuchayib borayotgandek. Ha, bunday holatlar, turli paqildoqlarning paqillashi, mushaklarning otilishi yildan-yilga ortib borayotgandek.

## Kun mulohazasi



Bu mevzu shu yilgi bayram kechasi va undan keyingi 3-4 kun ichida ijtimoiy tarmoqlarda ham muhokamalar markazida bo'ldi. Hatto Yangi yil bayrami kechasidagi mushakbozlik "kimo'zar"ga aylani ketayotgani, falon joyda muncha dollarlik, boshqa bir joyda undan ham qimmatroqqa sotib olingan mushaklar va ularning otilishi bilan bog'liq xabar, videolavhalar tarqalganiga guvoh bo'ldik. Agar vaqtda bunday holatlarning oldi olinmasa, pirotexnika vositalaridan foydalanish, shuningdek, "kimo'zar"lik avj olib boravetsa, turli ko'ngilsizliklar kelib chiqishi tabiiy.

To'lqin SIDDIQOV.

MATBUOT UYI Zarafshon АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi Bosh muharrir: Farmon TOSHEV Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yatga olingan. Nashr 100. Indeks 438, 16 540 nusxada chop etildi. Buyurtma 1. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2. Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi. QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56 BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61 MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Turzunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi. «Nashr lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonamanzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Boshlarga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Boshlarga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV. Navbatchi: X.ERNAZAROVA. Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV. ISSN-201667X 9 1772010 667009 1 Sotuvda nazir keltirilgan holda